

Bulutli texnologiya etuklashda davom etar ekan, biz raqamli bankingda real vaqt rejimida firibgarlikni aniqlash, shaxsiy moliyaviy maslahatlar va uzluksiz transchegaraviy tranzaktsiyalar kabi yanada murakkab foydalanish holatlarini ko‘rishni kutishimiz mumkin. Bulutli xavfsizlik va muvofiqlik sohasidagi davom etayotgan yutuqlar banklar va tartibga soluvchilarning bulutga asoslangan raqamli bank yechimlariga ishonchini yanada kuchaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
2. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
3. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
4. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digialeconomy report 2019.
5. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implicationsfor developing countries. UNCTAD, 2020.

## **INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA SMART TEXNOLOGIYALAR YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH**

**Talaba: Ergashev E'zozbek Umirzoq o‘g‘li.**

[ezozbekergashev0@gmail.com](mailto:ezozbekergashev0@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Kuralov Yuldash Abdullayevich, PhD.**

### **ANNOTATSIYA**

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, u xar bir insonga qayerda, qaysi xududda ishlamasin zaruratga aylandi. Shu sababli ta'lim jarayonida, xususan oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanini zamon talablari asosida o‘qitish dolzarb mavzuga

aylandi. Quydagi maqola oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalar fanini SMART texnologiyalar asosida o'qitish masalasiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), smart ta'lim, oliy ta'lim muassasalari (OTM), smart - ta'lim, elektron ta'lim, smart elektron ta'lim.

### ТЕХНОЛОГИЙ АННОТАЦИЯ

В наши дни компьютерная грамотность стала важной чертой культуры, она стала необходимостью для каждого человека, где бы он ни работал. Поэтому в образовательном процессе, особенно в высшей школе, актуальной проблемой стало обучение информационным технологиям в соответствии с современными требованиями. Следующая статья посвящена вопросу обучения информационным технологиям в высших учебных заведениях на основе SMART технологий.

Ключевые слова: информационные и коммуникационные технологии (ИКТ), интеллектуальное образование, высшие учебные заведения (ВУЗы), интеллектуальное образование, электронное обучение, интеллектуальное электронное обучение.

### ABSTRACT

Nowadays, computer literacy has become an important cultural feature, it has become a necessity for every person, wherever he works. Therefore, in the educational process, especially in higher education, teaching information technologies in accordance with modern requirements has become an urgent problem. The next article is devoted to the issue of teaching information technology in higher education institutions based on SMART technologies.

Keywords: information and communication technologies (ICT), intellectual education, higher education institutions (HEIs), intellectual education, e-learning, intelligent e-learning.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyatning har bir jabhasiga kirib borar ekan, hayotimizni ularsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli jamiyatning har bir a'zosi AKTlardan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Ta'lim bozorining globallashuvi munosabati bilan milliy ta'lim

tizimida yangi talablar to'plami shakllanmoqda. Masalaning dolzarbligini hukumatning bu sohaga berayotgan bevosita e'tibori ham ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851 06.10.2020 sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori doirasida Axborot texnologiyalarining o'qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorining malakali IT-mutaxassislariga bo'lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi ].

Ta'lim bozorining globallashuvi munosabati bilan milliy ta'lim tizimida yangi talablar to'plami shakllanmoqda. Asosiy talablardan biri bu raqobatbardosh va tez o'zgaruvchan ta'lim bozorida ishlash qobiliyati. Yetakchi biznes-modellar va innovatsiyalar kelgusi yillarda universitetlarning asosiy raqobat ustunligiga aylanadi. Shu bilan birga, IT ning o'rni oshadi, chunki ilg'or IT yechimlari universitetning strategik maqsadlarini amalga oshirish va boshqaruv va o'quv jarayonidagi innovatsion o'zgarishlarni tezlashtirishning asosiy omili sifatida yuzaga chiqadi ]. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari kurslarini samarali va jahon andozalari asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda, dars jarayonida, Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash dasturlari orqali yaratilgan taqdimotlarni multimedia vositalaridan foydalangan holda qo'llash oddatiy holga aylanib bormoqda. Ammo, ayni damda ta'lim sohasiga shunday interfaol texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular slayd-shou turkumidagi taqdimotlarni siqib chiqarmoqda. Buday "aqilli" texnologiyalardan biri Smart Boards axborotni talabalarga interfaol taxta — Smart Boards, interaktiv display — Sympodium yordamida uzatish, ma'ruzachiga dars jarayonining o'zida taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Interfaol Smart Boards taxtalariga maxsus markerlar yordamida yozish, o'quv materiallarini namoyish etish, ekrandagi tasvir

ustidan yozma sharhlar berish mumkin. Bunday interfaol smart taxtalar imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar (Smart Notebook, Bridgit, Synhron Eyes) ishlab chiqilgan va ulardan har birining o'z imkoniyatlari mavjud. Oxirgi yillarda, dunyo miqyosida elektron va Smart texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan talab keskin ortdi. Natijada dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, jumladan O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'qitishning bu yangi texnologiyasidan samarali foydalanib kelinmoqda. Interaktiv qurilmalar va ulardan unumli foydalanish texnologiyalari o'qituvchi va murabbiylarga video, audio manbaalardan foydalanish, slaydlar namoyish etish, turli xil sxemalar chizish, elektron ovoz berish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam bersa, talabalar

Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari uchun diqqatni jamlash, ma'lumotni tez va oson o'zlashtirish, muhokama va munozaralarda faol qatnashish orqali bilim olish imkoniyatini beradi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851 06.10.2020 sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5032128>
2. Kryukov V., Shakhgeldyan K., Information Technology at University: Strategy, Trends, and Experience. file:///C:/Users/User/Downloads/
3. "Informatika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'limini modernizatsiyalash istiqbollari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. NDPU Navoiy, 2018-yil, II qism.